XALQ DEPUTATLARI BO‘STON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 2-fevral VII-18-3-1-19-K/26 Bo‘ston tumani

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabr kungi VII-16-172-1-19-K/25-sonli qarorining 1- va 2-ilovalariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-287-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan tuman soliq inspeksiyasining 16-00018-sonli xatini inobatga olib hamda xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi “Andijon viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-15-297-1-0-K/25-sonli qaroriga asosan, Bo‘ston tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslarning 2026-yil uchun soliq stavkalarini tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi “Andijon viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-15-297-1-0-K/25-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bo‘ston tumani soliq inspeksiyasining 16-00018-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashining 2025-yil 30-dekabr kungi VII-16-172-1-19-K/25-sonli qarorining 1- va 2-ilovalari bekor qilinsin.

4. Tuman soliq inspeksiyasining 2026-yil uchun Bo‘ston tumani hududida yuridik hamda jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorini qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

5. 2026-yil uchun Bo‘ston tumani hududida yuridik hamda jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun mutloq miqdorda

belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari 1- hamda 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan 2026-yil uchun Bo‘ston tumani hududida yuridik hamda jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorini qo‘llash bo‘yicha muhokamalar o‘tkazib, joriy yilning 5-fevraliga qadar muhokamalar yakuni bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni joylardagi soliq organlariga taqdim etish tavsiya etilsin.

7. Bo‘ston tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Ashur-oxunov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Shamsutdinov) yuridik hamda jismoniy shaxslarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 10-fevralga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali etkazilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ochildinova) mazkur qaror tuman hokimligining ijtimoyi tarmog‘ida e’lon qilinishi hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi tavsiya etilsin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Mamarizayev) zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **TUYCHIYEVA MATLUBAXON KAMOLDINOVNA**

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 2-fevraldagi
VII-18-3-1-19-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

T/r	Hudud nomi	koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	1 gektar uchun soliq stavkasi (ming so‘m)
1	Obod MFY	1,0	34 188,0
2	G‘olib MFY	1,0	34 188,0
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	1,0	34 188,0
4	Ko‘xinur MFY	1,0	34 188,0
5	Yangi qishloq MFY	1,0	34 188,0
6	Yangi obod MFY	1,0	34 188,0
7	Maorif MFY	1,0	34 188,0
8	Guzar MFY	1,0	34 188,0
9	Madaniyat MFY	1,0	34 188,0
10	Do‘stlik MFY	1,0	34 188,0
11	Sarbon MFY	1,0	34 188,0
12	Yakka tol MFY	1,0	34 188,0
13	Pillakor MFY	1,0	34 188,0
14	Bo‘ston MFY	1,0	34 188,0
15	Davlatobod MFY	1,0	34 188,0
16	Sariq jo‘ga MFY	1,0	34 188,0
17	Navro‘z MFY	1,0	34 188,0
18	Gulshan MFY	1,0	34 188,0
19	Bog‘i eram MFY	1,0	34 188,0
20	Dexqonobod MFY	1,0	34 188,0
21	Nurafshon MFY	1,0	34 188,0
22	Mexnatobod MFY	1,0	34 188,0
23	Xovos MFY	1,0	34 188,0
24	Guliston MFY	1,0	34 188,0
25	Xalqobod MFY	1,0	34 188,0

Izoh: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Soliq kodeksiga muvofiq bazaviy stavka (51800*0,66) 34 188,0

Xalq deputatlari Bo‘ston tumani
Kengashining
2026-yil 2-fevraldagi
VII-18-3-1-19-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Bo‘ston tumani bo‘yicha jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasiga nisbatan xalq deputatlari Bo‘ston tumani Kengashi tomonidan belgilangan koeffisiyentlarga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan soliq stavkalari

T/r	Hudud nomi	koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	1 kv.metr uchun mutloq miqdorda belgilangan eng kam qiymat (so‘mda)
1	Obod MFY	0,95	312,3
2	G‘olib MFY	0,85	279,4
3	Mustaqillik 15 yilligi MFY	0,90	295,8
4	Ko‘xinur MFY	0,90	295,8
5	Yangi qishloq MFY	0,90	295,8
6	Yangi obod MFY	0,90	295,8
7	Maorif	0,85	279,4
8	Guzar MFY	0,90	295,8
9	Madaniyat MFY	0,95	312,3
10	Do‘stlik MFY	0,95	312,3
11	Sarbon MFY	0,75	246,5
12	Yakka tol MFY	0,80	263,0
13	Pillakor MFY	0,90	295,8
14	Bo‘ston MFY	0,80	263,0
15	Davlatobod MFY	0,80	263,0
16	Sariq jo‘ga MFY	0,85	279,4
17	Navro‘z MFY	0,80	263,0
18	Gulshan MFY	0,80	263,0
19	Bog‘i eram MFY	0,80	263,0
20	Dexqonobod MFY	0,85	279,4
21	Nurafshon MFY	0,85	279,4
22	Mexnatobod MFY	0,85	279,4
23	Xovos MFY	0,85	279,4
24	Guliston MFY	0,85	279,4
25	Xalqobod MFY	0,85	279,4

Izoh: *Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Soliq kodeksiga muvofiq bazaviy stavka (463*0,71) 328,7